

U ayol goh-gohida ishxonamizga kelib turardi. Balki uni shunchaki ayol desam, biroz yoshi o'tinqirab qolgandek taassurot uyg'otar sizda. Chunki, ayol deyish nisbiy tushuncha. O'n yetti yoshli qizni ham, yetmish yoshli onaxomni ham ayol deyish mumkin. Shuning uchun ham uni ayol emas, juvon deyish ma'qulday. Qolaversa, madaniyroq. Ishqilib, juvon haqida ishxona xodimlarining birortasida tugal, aniq fikr yo'q edi. U kelardi, hazil-huzul qilardi, ketardi. Kompyuterda o'tirib nima ish qilishini ham hech birimiz bilmasdik. O'sha kuni u ancha vaqt ushlanib qoldi. Tumandan qatnab ishlagani uchun ishdan ertaroq chiqib, uyiga qaytishi kerak.

Aytgancha, uning eri yo'q edi. Demak, juvon haqida nimanidir bilardik. Qolaversa, yuzlari shevada aytganda biroz qorashirg'ay, sochlari esa jingalakka moyil, doimo yasan-tusan qiladi, bo'yи ham kaltaroq. Juda ko'p kulardi. Tushunish qiyin, ko'p kuladigan odam haqida har xil xayolga borish mumkin: u sizdan nimanidir yashirayapti, siz bilan qalinlashishni xohlayapti, yolg'on gapirayapti, o'zini o'ng'aysiz sezayapti va hokazo. Lekin bizning juvonimizga bu taxminlarning barchasi to'g'ri kelardi. Yana shu gap uni yaxshi bilmasdik!

Ishxonada eng kichigi men va Aziz. Yoshimiz ham teng, bitta institutni bitirib, bir joyda ishlayotgandik. Juvonning qiliqlari bizga yoqardi. Uning g'ashiga teksak, tegajog'luk qilsak ham indamasdi. Bizni yosh bola bilardi yo ungayam bu yoqardi. Bizdan uch-to'rt yosh katta bo'lsa-da o'zimiz tengi ko'rib hazillashaverardik. Sochidan tortib, burniga teginardik. U soxtaqovoq bilan "hujum" qilardi. Biqinimizdan "boshqacha qilib" o'yib olardi.

Juvon rostdan ham sirli edi. Xayolimda uning ichida dardi bordek tuyulardi. U menga ba'zida "yorilmoqchidek" bo'lardi. Aslida kimning ham dardi yo'q? Axir eridan ajragan ayol bo'ladi-yu dardi bo'lmasinmi? Nega ajrashgan, buning qandaydir sababi bor-ku. O'sha qandaydir sabab albatta uning dardi bo'lsa kerak. Balki eriga ko'ngli bo'lmagandir yoki eri urgandir, yoki boshqa narsa, nima bo'lsayam, bizning juvon azob chekkan. Buni sezardim. Ko'p qiyalgani shundoqqina sezilib turardi. Himoyasiz, suyanchsiz ayolni farqlashdan osoni bormi? Ular yo ko'zingizga tik qarab gapiradi yoki aksincha. Bu uning tanlagan yo'liga bog'lilq, albatta. Ha, o'sha kuni ertalab kelganidayoq uning kayfiyati yaxshi emasligini sezdim. Shuning uchunmi, berilib ishladi. Kun qaytayotgan bo'lsa-da juvon qaytishni o'yamasdi. Deraza oynasidan g'ira-shira bo'lib borayotgan osmonga qarab-qarab qo'yardi.

Nima, bugun uyingizga ketmoqchi emasmisiz? Aziz betakallufligiga borib juvonga savol berdi. Juvon anoyi emas. Ko'pni ko'rgan ayollarday javob qaytardi:

Ikki bo'ydoq meni biror joyga taklif qilsalaring-chi?

Bo'pti, biznikiga boramiz. Osh qilib berasiz, o'tiramiz - Aziz yana surbetlik qildi.

Taajjub, juvon "yaxshi" deb kulib qo'ya qoldi. Avvaliga bu gaplarga unchalik e'tibor qilmagan bo'lsak-da rostdan ham u qaytishni o'yalamay qo'ydi. Ayolning fe'lil g'alati-da. Yanada berilib ishga kirishdi. Ishxonada uchovimiz va qorovul qoldi.

Aziz nimanidir o'ylab ichi yonayotgandi. Nima qilarini bilmay, u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi. Biroz oldin juvonni ugya taklif qilib qo'yanidan o'ng'aysiz ahvolga tushayotgandi. O'zi u shunaqa doim shoshadi. Men ham atay unga qaramadim.

Tashqariga chiqib ketdi. Yana qaytib kirdi. Yana chiqib ketdi. Meniyam chaqirdi.

Nima qilamiz? co'radi.

O'zing bilasan, sen taklif qilding, - bo'ladigan voqeani o'ylab oldindan terga botdim.

Ov, asabimga tegma, nima qilamiz, ayt! sherigim ham nima qilishni bilmayotgandi. Balki hazil qilgandir, biror tanishinikiga ketsa kerak. Kiraylik-chi, so'raymiz. Ketmasa, tavakkal, xonaga boraveramiz. Bitta konyak, ozroq kolbasa, mayda-chuyda olsak bo'lar Cho'ntagini ushlab qo'ydi.

Kabinetga kirsak, juvon kompyuterlarni o'chirayotgan ekan. Biz bilan ketishni xohlamas, deb umid qildik. Fikri o'zgargandir. Ikki "go'dak"ni bir qo'rqtib qo'yay degandir. Yo'q, unday emas ekan. "Ketdik, yigitlar" deb bizni oldiga soldi. Yo'l-yo'lakay biroz oldin rejalashtirgan narsalarimizni do'kondan xarid qildik. Juvon yonimizda turgani uchun yana boshqa mayda-chuydalar ham qo'shildi. Yaxshigina bozorlik bo'ldi. Agar bu narsalarni do'stim ikkimiz mayda chaynasak, biror haftacha yashardik. He arzimabdimi.

Podezdga kirib zinadan ko'tarilayotganda xonamizning ahvolini ko'z oldimga keltirib, yuragim orqaga tortib ketdi. Qariyb bir necha oydan buyon yuvilmagan idishlar uyulib qolgan. Supurilmaganiga ham haftalar bo'lgan. Esimda, yaqinda bir-ikki kursoshlar kelganda uyni supurgandik. Latta-puttalar, ko'rpa-to'shaklar boshqa jins vakillari ko'zi tushadigan holatda emasdi, albatta. Qo'polroq qilib aytganda, uyimizga mog'or hidi unnab qolganini o'shanda sezdim. Eng yomoni, bu o'ylarni zinadan ko'tarilgunimizcha o'yadim. Ilgariroq xayolimga kelsa bo'lmasmidi?

Juvon bizning kulbag'a kira solib, burnini jiyirdi. Ochiqdan-ochiq jirkanganini yashirmadi. Avvaliga yarmi uzilib yotgan pardalarga, so'ng chala yig'ilgan ko'rpa-to'shakka bir-bir qarab chiqdi. Oshxona tomondan kelayotgan noxush hiddan ko'ngli ag'darilgudek bo'ldi. Hayronman, xonamizga juvon kirgunicha bunchalik rasvo uyda yashashimiz biror marta bo'lsin sezilmagan ekan.

Uzr, bo'ydoqchilik, aybga buyurmaysiz, - gapni burmoqchi bo'ldim. Hozir eslashga qo'rqadi, kishi. Uni shu ahvolda o'tirishga taklif qildik.

Juvon bizni uyimizdan chiqarib yubordi. "Bir aylanib kelinglar" dedi. Oshnam bilan ko'cha muyulishidagi do'konga qarab yurdik. Ko'chada pista chaqib, o'zimizcha nimalar qilishimizni o'yadik. U menga sen boshla dedi, men unga avval sen boshla, dedim. Biror soatcha tashqarida turdik. Negadir ugya kirishga unchalik shoshilmasdik. Juvon bizning xonamizni tartibga keltirishi odatiy holdek, ko'chada aylandik.

Ugya kirganimizda, xonamizni o'zimiz tanimay qoldik. Juvon shuncha idish-tovoqni qanday yuvib ulgurgani-yu, cho'ltoq supurgi bilan xonani chinnidek qilib supurib qo'yaniga ishonmadik. Oshxonadan ham yoqimli hid kelayotgandi. Osh! Dasturxon ham o'ziga xos bezalgan. Xonani ayol isi tutib ketgan. Fikrimcha, sumkachasidagi atirdan olib sepgan edi. Ochig'i, uni bunchalik orasta, deb o'ylamagandim. Unga mehrim iyib ketdi. U o'zini shu uyning bekasidek tuta boshlagandi. Biz esa rostdan ham uning uyiga kelgandek, begonasirab ugya kirdik.

Yaxshiyam, "xozayn"laring chet elga ketgan ekan, bo'lmasa ikkalangizni ham quvib chiqararmidi? juvonning biroz oldingi horg'in, tushkun kayfiyatidan asar ham qolmagandi. Sal tozalab o'tirsalaring bo'ladi-ku. Endi u o'zini opamizday tuta boshladi. Azizni bilmadim-u lekin men uni uyimizga olib kelganimizdan afsus qila boshladim. Aniqrog'i, uyaldim. Ishqilib, xayolimizdan o'tgan narsalarni sezib qolmadimikan. U o'z xonadonida erishmagan bekaligini bizning g'arib kulbada qilishga intilayotgandi. Bir kungina bo'lsa-da erli uyning erkasi bo'lishni qumsayotgani sezilib turardi. Shunday beozor sho'xlik qila boshladiki, fikrimcha bu "egri ayol"ning qiligidiga sira o'xshamas, aksincha, rafiqanining, jufti-halolning nozini eslatardi. U juda baxtli edi.

Palovxonto'rani suzib keldi. Oshnam ovqatdan oldin yaxshi ketadi, deb unga konyak quygandi, qat'iy rad javobini oldi. Ichiga shayton suvi kirmagani uchunmi, Aziz o'zini mendan ham battar o'ng'aysiz his qila boshladi. Rostdan mehmonda o'tirganday,

This is not registered version of TotalDoc Converter

gaplarni qayinog'lagan joyda gaplarni, o'shchadadi. Maydil bo'lmasa-da ko'pchilik baxtsiz ayollar singari dardini aytishga tushib ketdi. Lekin yig'lab-siqtamadi, shunchaki, birovning taqdirini gapirgandek hissiz gapirib berdi. Noshud eri, orsiz qayinog'alari, oqibati yo'q aka-ukalari haqida xiyol jilmayib gapirib so'zladi. Biz ham bu gaplarga jiddiy qiziqmadik, hissiz tingladik. Uyimiz bir xona-yu torgina oshxonadan iborat edi. Shunday bo'lsada, biz oshxonaga chiqib yotmoqchi bo'ldik. Juvon rozi bo'lindi. Bitta xonada yotamiz dedi. O'ziga, menga va Azizga yonma-yon qilib joy soldi. Shaytonni qarang, yana ishini qildi: ichimizga oraladi. Fikrimiz bo'lindi. Chiroqni o'chirganimizdan so'ng, oshnam biqinimga turtdi. "Qo'lingni uzat, indamaydi" dedi. Ichim muzlab ketdi. Bir xayolim qo'limni uzatsammi, dedim. Qo'rqedim. "O'zing o't!" dedim. "Yo'q, sen boshla" dedi.

Aynimanglar, qaerda ko'rgansizlar uka opaga yomon ko'z bilan qaraganini? gaplarimizni eshitib turgan ekan. Tinch uxlanylар, qani. - Yer yorilmadi, yerga kirib ketmadik. Hamma gapimizni eshitibdi. Rosa izza bo'ldik-da o'ziyam. Uning bu gapidan keyin boshqa narsaga o'rinnolarmidi?

Shayton xo'mraydi xo'mraydi. Keyin derazadan chiqib ketdi. Nima bo'lsa bo'lar, o'sha oqibatsiz ukalarining o'rniga biz uka bo'lsak, nima bo'pti